O‘ZBEK ROMANCHILIGI TARAQQIYOTI: ILK TAJRIBALARDAN YETUK NAMUNALARGACHA

Teshayeva Fotima Sherbek qizi

Annotatsiya. Tadqiqotda o‘zbek romanchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, milliy romanning ilk tajribalari, uning realistik shaklga kelishi hamda jahon nasri an’analarining bu jarayondagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek romanchiligi, “ro‘mon”, realistik roman, “O‘tkan kunlar”, Jo‘rjiy Zaydon, tarixiy roman, adabiy ta’sir.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida realistik roman janrining ilk yetuk namunasi sifatida e’tirof etiladi. Biroq janr to‘satdan paydo bo‘lmagan: unga XX asr boshlarida olib borilgan nasriy izlanishlar, milliy epik an’analar va jahon romanchiligi tajribasi zamin yaratgan. Roman janri, uning genezisi va o‘zbek adabiyotidagi taraqqiyoti masalalari S. Mirvaliyev [1], U. Normatov [2], B. Karimov [3], M. Qo‘shjonov [4], D. Quronov [5] kabi olimlarning ishlarida turli jihatdan yoritilgan. Mazkur tadqiqotda o‘zbek romanchiligining ilk tajribalardan to yetuk namunalargacha bosib o‘tgan yo‘li hamda unda jahon nasri an’analarining o‘rni ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek adabiyotida roman janriga oid dastlabki urinishlar XX asrning birinchi o‘n yilligi va 1910-yillar bilan bog‘liq. Hamza o‘zining tarjimai holida 1908-yilda “Haqiqat kimda?” nomli “ro‘mon” yozganini qayd etadi; keyinchalik yaratilgan “Yangi saodat yoxud milliy ro‘mon” (1915) va “Uchrashuv” (1916) asarlari ham shu nom bilan atalgan [6]. Hamza bu atamani milliy yozma nasr namunasiga nisbatan birinchi bo‘lib qo‘llagan ijodkor sifatida ahamiyatlidir. “Yangi saodat”ga yozilgan so‘zboshida u asarni ommaviy o‘quvchi saviyasi va ehtiyojlarini hisobga olib, xurofot va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi asossiz kitoblar o‘rniga foydali o‘qish risolasi sifatida yozganini bildiradi [6]. “Milliy roman” tushunchasi esa Mirmuhsin Shermuhammad o‘g‘lining 1914-yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da parcha-parcha e’lon qilingan “Befarzand Ochildiboy” asari bilan bog‘lanadi [7]. Muallif jamiyatdagi illatlar haqida maqolalar yozish yetarli samara bermagach, ularni xalq ko‘z o‘ngida yorqinroq ko‘rsatish maqsadida romanga murojaat qilganini aytadi. Bu e’tirof romanga ijtimoiy muammolarni chuqurroq ochib beruvchi, o‘quvchiga kuchli ta’sir etuvchi vosita sifatida qaralganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, bu tajribalar realistik epik shakl talablariga to‘liq javob bermagan va roman janrining dastlabki izlanishlari sifatida baholanadi.

Qodiriy yangi davr talablari bilan bog‘liq holda adabiyot oldidagi vazifalarni aniq belgilab bergan ijodkor edi: u dostonchilik, “ro‘monchilik” va hikoyachilikda yangi asarlar yaratish, xalqni zamonaviy asarlar bilan tanishtirish majburiyatini his etishini yozgan. Garchi adib 1915-yilda “Juvonboz” hikoyasini “ro‘mon” deb atagan bo‘lsa-da, haqiqiy romanga xos keng ko‘lamli va pishiq badiiy yechimlar 1920-yillarga kelib o‘z natijasini berdi. 1905–1915-yillar oralig‘ida milliy adabiyot nafaqat mazmun, g‘oya va mavzu, balki shakl va uslub jihatidan ham tubdan yangilandi, yangi janrlar ajralib chiqib, ichki tarmoqlana boshladi. Aynan shu tayyorgarlik Qodiriyning zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketishiga imkon berdi.

To‘laqonli adabiy-estetik mezonlarga javob beradigan roman XX asrning 20-yillarida yuzaga keldi. Qodiriy “O‘tkan kunlar”ni 1918–1919-yillarda yozishga kirishgan, asarning ayrim boblari 1920-yilga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kelib bitilgan. Roman 1924–1926-yillarda arab alifbosida uch kitob holida nashr etildi, 1933-yilda esa muallif hayotligida oxirgi marta chop etildi. Adib oqlanguniga qadar, ya'ni 1956-yilgacha asar qayta nashr qilinmadi, keyingi nashrlar esa mustaqillikkacha tahrir va qisqartirishlar bilan bosildi. Faqat 1992-yilda 1926-yilgi asl nusxa tiklab nashr etildi [8]. "O'tkan kunlar" kompozitsion mukammalligi, obrazlar tizimining puxtaligi va ijtimoiy-tarixiy voqelikni chuqur aks ettirgani bilan milliy romanning ilk to'laqonli namunasiga aylandi. Agar Hamza va Mirmuhsin Shermuhamedov-Fikriylar "ro'mon" atamasi va tushunchasining paydo bo'lishiga zamin yaratgan bo'lsalar, Qodiriy romanlari bu izlanishlarning eng yetuk natijasi bo'ldi.

Tahlillar "O'tkan kunlar"ning yaratilishi uch asosga tayanganini ko'rsatadi. Birinchisi — xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotimizning epik an'analari: dostonchilik, epik syujet qurilishi va qahramon yaratish usullari. Ikkinchisi — rus va jahon romanchiligi tajribasi, ayniqsa arab yozuvchisi Jo'rjiy Zaydonning tarixiy romanlari. Uchinchisi — XX asr boshlarida shakllangan milliy nasriy va yozma epik tajribalar. Qodiriyning o'zi roman yozishga Zaydon ilhomlantirganini e'tirof etgan. Zaydonning "Karbalo yog'dusi", "17 ramazon", "Armanusa", "Al-Amin va Al-Mo'min", "Farg'onalik kelin" kabi asarlari Turkiston ziyolilari orasida keng tarqalgan edi. Qodiriy tatar, ozarbayjon va rus matbuotini mutolaa qilgan, rus-tuzem maktabida o'qigan, madrasada arab va fors tillarini mukammal o'zlashtirgan. Bu unga Sharq mumtoz va zamonaviy adabiyotini asl manbalar orqali o'rganish imkonini bergan. Zaydonning o'n to'qqizta tarixiy romani esa o'z navbatida V. Skott ijodi ta'sirida yuzaga kelgan. Shu bois Qodiriy G'arb romanchiligidan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita bahramand bo'lgan.

Zaydon ijodining Qodiriy uchun jozibasi yana bir omil bilan izohlanadi. Zaydon davrida tarixga qiziqish juda kuchli bo'lgan va bu ehtiyoj avval she'riyat va dramaturgiya, so'ngra nasr vositasida qondirilgan. Tarixiy voqealarni umumlashtirish uchun roman eng qulay epik janr bo'lib chiqqan. Qodiriy esa Rabindranat Tagor singari yozuvchilarning nasriy asarlarini o'rganib, ayrim kichik namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan, shu jarayonda Zaydon romanlari bilan bevosita tanishgan. Zaydon ijodining epik qurilish, tarixiylik va badiiy umumlashtirishga asoslangan jihatlari adibning romannavislik qarashlari shakllanishida muhim o'rin tutgan. Natijada Qodiriy Sharq va G'arb adabiy an'analari tajribasini sintez qilib, milliy romanchilikning yangi bosqichini boshlab berdi [9].

Shu bilan birga, Qodiriy Zaydon yo'lini shunchaki takrorlamadi. Zaydon romanlarida asosiy maqsad tarixni badiiy qayta talqin qilish emas, uni ommaga yetkazish va targ'ib etishdir. Shuning uchun unda tarixiy faktlar, shaxslar va hayot tafsilotlarini sanab o'tish ustun turadi, qahramonlarning ruhiy olami chuqur tahlil etilmaydi, obrazlar tarixiy jarayonni ko'rsatish vositasiga aylanadi. Asarlarda yuqori tabaqa vakillari qahramon sifatida tasvirlanadi, muhabbat sarguzasht ruhida talqin qilinadi, voqealar tasodif va to'siqlar bilan murakkablashib, to'y va baxt bilan yakunlanadi, ayrim unsurlar esa shablon tusini oladi [9]. Qodiriy esa tarixni badiiy obrazlar va epik bayon orqali umumlashtirdi, inson ruhiyati va ijtimoiy muhitni keng epik qamrovda ko'rsatdi. Fitrat o'z davrida "O'tkan kunlar"dan boshqa roman hali yozilmaganini, bu asar esa qiyin yo'ldagi birinchi va muvaffaqiyatli qadam ekanini qayd etgan edi [10]. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ham tarixiy mavzuni yangi badiiy darajada davom ettirdi [15].

20–30-yillarda o'zbek romanchiligi jadal rivojlandi. Roman endi faqat tarixiy mavzu bilan cheklanmay, zamonaviy hayot, ijtimoiy-siyosiy kurashlar va turli dunyoqarashdagi insonlar taqdirini ham aks ettira boshladi. Cho'lponning "Kecha va kunduz", Sadriddin Ayniyning "Doxunda" va "Qullar", Oybekning "Qutlug' qon" romanlarida xalq tarixining mustamlakachilik, milliy uyg'onish va inqilobiy o'zgarishlar kabi bosqichlari haqqoniy tasvirlandi. Abdulla Qahhorning "Sarob"i esa zamonaviy mavzudagi to'ng'ich roman sifatida alohida o'rin tutadi [11]; Hamid Shamsning "Huquq" va "Dushman"

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

asarlari ham shu yo‘nalishga mansub. Shu tariqa o‘zbek romanchiligi ikki asosiy yo‘nalishda — tarixiy va zamonaviy roman tarzida rivojlandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek adabiyotida bitta roman — Oybekning 1944-yilda yozilgan “Navoiy” asari yaratildi. Urushdan keyin S. Ayniyning “Esdaliklar”, A. Qahhorning “Qo‘shchinor chiroqlari”, P. Tursunning “O‘qituvchi”, A. Muxtorning “Opa-singillar” kabi romanlari paydo bo‘ldi. Keyingi bosqichda tarixiy mavzu yanada faollashdi: Oybekning “Ulug‘ yo‘l”, M. Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha”, O. Yo‘qubovning “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo”, P. Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Me’mor”, N. Safarovning “Navro‘z”, X. To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi”, M. Qoriyevning “Spitamen” romanlari bu yo‘nalishning yorqin namunalaridir [12; 13]. Bu davr romanchiligida tarixga murojaat nafaqat o‘tmishni tasvirlash, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va zamonaviylikni tarixiy tajriba asosida talqin etish vazifasini ham bajargan. Mustaqillik yillarida yangi avlod yozuvchilari an’anaviy mavzularni yangicha talqin qilib, mustaqil hayotning o‘ziga xos tomonlarini badiiy aks ettirmoqda; Sharq va G‘arb an’analari sintezi bu davr romanlarida alohida tadqiq etilmoqda [14].

Adabiyotshunoslikda o‘zbek romanchiligi taraqqiyotini ikki omil birligida o‘rganish maqsadga muvofiq: bir tomondan, milliy adabiy ildizlar — og‘zaki ijod, dostonchilik va yozma nasr an’analari; ikkinchi tomondan, adabiyotlararo aloqalar va ijodiy o‘zlashtirish. Qodiriy misolida ko‘rinadiki, tashqi ta’sir taqlidga aylanib qolmadi: Zaydonning tarixiy roman tajribasi, V. Skottning epik an’anasi milliy voqelik, o‘zbek xalqining tarixi va ruhiyati bilan qorishib, mutlaqo yangi badiiy hodisani yaratdi. Shu bois “O‘tkan kunlar”ni nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki Sharq romanchiligining ham muhim yutug‘i sifatida qaramoq lozim.

Bugungi kunda qiyosiy adabiyotshunoslik oldida o‘zbek romanchilik maktabining jahon adabiy jarayonidagi o‘rnini, adabiy ta’sir va ijodiy o‘zlashtirish mexanizmlarini ilmiy asosda aniqlash vazifasi turibdi. Ushbu masalani Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” va Jo‘rjiy Zaydonning “Xorun ar-Rashidning singlisi” romanlarini qiyosiy tahlil qilish orqali yoritish o‘zbek romanining jahon nasri an’analari bilan bog‘liqligini yanada aniqroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek romanchiligi milliy epik ildizlar, ilk “ro‘mon” tajribalari va jahon nasri an’analarining uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Hamza va Mirmuhsin Shermuhamedov-Fikriy tajribalari janrga zamin tayyorlagan, Qodiriy esa Zaydon va V. Skott an’analarini ijodiy o‘zlashtirib, ularni milliy tuproqda yangi badiiy sifatga ko‘targan. Qodiriydan keyingi avlod ijodkorlari janrni tarixiy va zamonaviy yo‘nalishlarda boyitib, o‘zbek romanchilik maktabini jahon adabiy jarayonining tarkibiy qismiga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirvaliyev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969. – 316 b.
2. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi: talqin, qayd, suhbat va mulohazalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 272 b.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 2004. – 232 b.
4. Qo‘shjonov M. Mohiyat va badniyat. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1977. – 232 b.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 228 b.
6. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami: 2-tom. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 399.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

7. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – B. 506.
8. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy kashfiyoti. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – B. 78.
9. Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy kashfiyoti. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – B. 82.
10. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B. 84.
11. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 27–28.
12. Yoqubov I. O'zbek romani tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 164 b.
13. Karimov N. va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 437 b.
14. Davronova Sh.G. Istiqlol davri o'zbek romanlarida Sharq va G'arb an'analarining badiiy sintezi: filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Samarqand, 2019.
15. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2013. – 288 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.